Aksiyadorlik jamiyatlari kapitalini shakllantirish manbalari va usullarini takomillashtirish.....	1070
Norqulov Mirsaid Tulqin o'g'li	
Qishloq xo'jaligi sohasida investitsion jozibadorlikni oshirish zaruriyati .....	1075
Badalov Jamshid Jamolovich	
Foya solig'i tushumi va uning O'zbekiston soliq-budget tizimidagi ahamiyati.....	1080
Shirinov Sabir Erkinovich	
O'zbekistonda davlat korxonalari aksiyalarini moliya bozorlarida sotishni jadallashtirish yo'nalishlari .....	1084
Anvar Eshmatov	
Baliqchilik xo'jaliklarida xodimlar bilan hisob-kitoblar hisobining tashkiliy va uslubiy jihatlari .....	1088
Ametova Nasiba Danilovna	
Tijorat banklari tomonidan eksportyor korxonalarning kreditlash amaliyotini takomillashtirish .....	1092
Bayjanova Gozzal Sarsengaliyevna	
Digital Transformation of Tax Systems.....	1096
Boburjon Turanboyev Qodirjon o'g'li, Musabekov Sherali Nazarali o'g'li	
Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish yo'nalishlari.....	1101
Raxmonova Aziza Tolibovna	
Transitioning to a Green Economy and Implementing Sustainable Technological Changes in Uzbekistan .....	1106
Umarov Elshod G'ulom o'g'li	
Texnik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari daromadlari tarkibi va ularning o'ziga xos jihatlari.....	1112
Yuldashev Elmurod Abdujalil o'g'li	
Совершенствование системы профессионального управления жилищно-коммунальным хозяйством Узбекистана .....	1116
Икромова Ханифа Одиловна	
Sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotining zamonaviy holati.....	1121
Kamalova Jamila	
O'zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarning huquqiy maqomi va ularni isloq qilishning istiqbollari....	1125
Qahhorov Azizjon Ahror o'g'li	
Nodavlat notijorat tashkilotlari mablag'lari va ulardan foydalanish to'g'risidagi bajarilishlarga oid hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi .....	1131
Ne'matov Oybek Ismatullayevich	
Предприятие автомобильной промышленности как объект реализации концепции устойчивого развития .....	1136
Туйчиев Комилжон Лазизович	
Tijorat banklari aktivlari diversifikatsiyasining nazariy ahamiyati .....	1143
O'ktamova Nozima Narzulla qizi	
Tijorat banklarida yangi masofaviy bank xizmat turlarini rivojlantirish .....	1146
Umarov Abdulquddus Abdilqatovich	
Некоторые вопросы эконометрической оценки CES – функций и их практическое применение в экономических задачах .....	1151
Шадиева Гулнора Мардиевна, Усманов Фарзод Шохрухович	
Использование искусственного интеллекта в спортивной индустрии.....	1158
Усманова Дилфузахон Иброхимовна	
The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities ....	1163
Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li	



Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida) .....	1168
Kolmatov Sanjarbek Xojimamatovich	
O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishing asosiy ko'rsatkichlari.....	1174
Qilichev Umid Ibadullayevich	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choraları .....	1181
Xamraulova Gulnozaxon Faxriddin qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari .....	1185
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati .....	1191
Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Islom iqtisodiyotining mohiyati.....	1197
Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Budget mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi .....	1201
G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari .....	1207
Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами .....	1212
Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar .....	1218
Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna	
Ta'llim sifatini ta'minlash oliv ta'llim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili.....	1222
Nematov Inatillo Ubaydullayevich	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish.....	1228
Umurzakova Adiba Ochilovna	
Tijorat banklari resurslari shakllanishing manbalari va yo'llari.....	1232
Raxmanov Ilhom Xurramovich	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане .....	1238
Пулатова Сурайё Юлдашевна	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике .....	1242
Рафиева Зарина Хусановна	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries .....	1246
Akhmedov Doniyorbek	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari .....	1250
Azizova Manzura Ibragimovna	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production .....	1254
Dilfuza Baxramovna Safarova	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari.....	1261
Shamsiyev O'ktam Sayftidinovich	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'nalishlari.....	1266
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiropi va ahamiyati.....	1272
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari .....	1277
Ibragimov Gafurjan Axmetovich	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi.....	1282
Ibragimov Mansur Axmedovich	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida).....	1286
Mamatqulov Omonulla Mamayusupov	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами.....	1294
Мансурова Севара Мансуровна	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash .....	1297
Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna	



# TADBIRKORLIK MUHITINI YAXSHILASH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA AHOI DAROMADLARINI OSHIRISHNING IQTISODIY- IJTIMOIY AHAMIYATI

**Irmatova Lola**

TDIU tadqiqotchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tadbirkorlik muhitini yaxshilash, kambag'allikni qisqartirish va aholi daromadlarini oshirishning iqtisodiy-ijtimoiy imkoniyatlarini rivojlantirishning zamonaviy yo'llari, tadbirkorlikni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar, kambag'allikni qisqartirish omillari, aholi daromadlarini oshirishning yangi imkoniyatlari, mamlakatimizda olib borilayotgan islohontlarning natijasi hamda tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan huquqiy masalalar ilmiy jihatdan bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** xususiy tadbirkorlik, kichik biznes, kambag'allikni qisqartirish, aholi daromadlarini oshirish, innovatsiya, raqamli texnologiya, iqtisodiy-ijtimoiy imkoniyatlar.

**Abstract:** In this article, modern ways of improving the business environment, reducing poverty and developing economic and social opportunities to increase the income of the population, scientific research aimed at the development of entrepreneurship and reducing poverty, factors of poverty reduction, new opportunities for increasing the income of the population, the results of the reforms carried out in our country, and legal issues aimed at the development of entrepreneurship scientifically stated.

**Key words:** private entrepreneurship, small business, reducing poverty, increasing incomes of the population, innovation, digital technology, economic and social opportunities.

**Аннотация:** В данной статье рассмотрены современные пути улучшения бизнес-среды, сокращения бедности и развития экономических и социальных возможностей для увеличения доходов населения, научные исследования, направленные на развитие предпринимательства и сокращение бедности, факторы снижения бедности, новые возможности повышения доходов населения. доходы населения, результаты реформ, проводимых в нашей стране, и правовые вопросы, направленные на развитие предпринимательства, научно обоснованы.

**Ключевые слова:** частное предпринимательство, малый бизнес, сокращение бедности, повышение доходов населения, инновации, цифровые технологии, экономические и социальные возможности.

## KIRISH

Buguni kunda tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash, mamlakatimizdagi kambag'allik darajasini qisqartirish hamda aholi daromadlarini oshirishning iqtisodiy-ijtimoiy imkoniyatlarini yanada rivojlantirish iqtisodiyot sohasidagi hal qilinishi lozim bo'lgan eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Muhtaram, Prezidentimiz tomonidan mamlakatimizdagi tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash hamda kambag'allikni qisqartirish borasida ko'plab yangi islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, mamlakatimizdagi xususiy tadbirkorlik va kichik biznes sohasini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlarini kuchaytirish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlarni tashkil qilish tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi hamda "Tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslar va ishlab chiqarish infratuzilmasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish to'g'risida"gi Farmonlari qabul qilindi. Ushbu Farmonlarda belgilab berilgan eng dolzarb ustuvor vazifalarni hududlar kesimida ijrosini o'z vaqtida ta'minlanishi natijasida tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilashga qaratilgan yangi imkoniyatlarni yuzaga kelishiga, kambag'allikni qisqartirish borasida yangi dasturlarni amaliyatga keng tatbiq etilishiga turki



bo'ldi hamda aholi daromadlarini oshirishning iqtisodiy-ijtimoiy imkoniyatlarini yanada oshishiga xizmat qildi. Amaliyatga tatbiq etib kelinayotgan yangi islohotlar natijasida mamlakatimizda xususiy tadbirkorlik va kichik biznes sohasini rivojlantirish, yangi imkoniyatlarni kengaytirish, innovatsion texnologiyalarni samarali qo'llash hamda hududlardagi bandlik darajasini oshirish salohiyati yildan-yilga ortib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasini keng jamoatchilik o'ttasida targ'ib etishga bag'ishlangan ilmiy-ommabop qo'llanmasida quyidagi fikrlar keltirib o'tligan:

- davlat himoyasida bo'lgan xususiy mulkning daxlsiz ekanligini, har qanday vaj bilan xususiy mulkni, shu jumladan, avval xususiylashtirilgan mulkni olib qo'yish, asosli zaruratsiz buzib yuborish g'ayri huquqiyigini anglab yetmayotgani hamda yer uchastkalarini ajratishda o'zboshimchaliklarga yo'l qo'yilayotgani ta'kidlangan. Xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish, xususan, soliqqa tortish mehnatzimi, yirik biznes bilan hamkorlik va kooperatsion aloqalarni rivojlantirish bo'yicha qator choralar amalga oshirildi [1].

Hozirigi kunda tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash orqali mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni ta'minlash uchun tadbirkorlik sohasida litsenziya va ruxsat beruvchi hujjatlarning sonini keskin qisqartirish, tegishli vakolatlarni Vazirlar Mahkamasidan muayyan davlat organlariga berish orqali litsenziya va ruxsat beruvchi hujjatlarni rasmiylashtirishni nomarkazlashtirish, yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat ko'rsatuvchi yakka tartibdag'i tadbirkorlarga o'rnatilgan tartibda har qanday faoliyat turi bilan shug'ullanish huquqini bergen holda, ular shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari ro'yxatini bekor qilish va boshqa chora tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan bir qator amaliy ishlarni olib borilmoqda.

Bundan ko'rindiki, tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash, kambag'allik darajasini qisqartirish hamda aholi daromadlarini oshirishni yanada rivojlantirishning zamonaviy yo'llaridan biri xususiy tadbirkorlik va kichik biznes sohasini innovatsion va raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish bo'lib, innovatsion va raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali sohadagi mavjud muammolarni bartaraf etishga qaratilgan yangi imkoniyatlar yuzaga keladi hamda aholi daromadlarini ortib borishiga xizmat qiladi.

## ILMIY MUAMMONING QO'YILISHI

Tadbirkorlik muhitini yaxshilash orqali mamlakatda kambag'allikni qisqartirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar asosida aholi daromadlarini oshirish bo'yicha xorijlik olimlar bir qancha ilmiy tadqiqot ishlarni olib borishgan, ularni ilmiy tadqiqotlarida asosan tadbirkorlik muhitini yaxshilash va kambag'allikni qisqartirish borasida bank siyosatini kengroq olib borish masalasiga e'tibor bergenlar. Jumladan, xorijlik olimlardan K. Makkonen, I. Lipsits, Dj. Lorens, A. Blank, S. Bryu, V. Bernes, L. Gitman, T. Gustafson, A. Mertens, V. Milovidov, P. Samuelson, A. Xavranek, M. Fridman, Ye. Cherkasov va boshqalarni misol qilib aytishimiz mumkin [3].

Xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish asosida aholi daromadlarini oshirish masalalari xorijlik iqtisodchi olimlardan Ye. L. Kantor, S. V. Veronin, S. Deting, Yu. I. Rostova, V. A. Barinov, V. L. Xarchenko [4] hamda I. V. Sergeyevlar [5] tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda o'z natijasini topgan.

Mamlakatimizdagi olimlardan O. K. Iminov, B. A. Xodjayev, A. A. Isadjanovlarning ilmiy izlanishlarida ayrim jihatlari o'z ifodasini topgan [6]. Tadbirkorlik muhitini yaxshilash orqali mamlakatda kambag'allikni qisqartirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar hamda aholi daromadlarini oshirishning nazariy jihatlari mamlakatimiz olimlardan A. Vahobov, R. Xasanov, A. O'Imasovlarning ilmiy ishlardan kengroq yoritilgan [7].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kaflatlarini kuchaytirish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlarni tashkil qilish tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar, shuningdek, tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslar va ishlab chiqarish infratuzilmasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish to'g'risida"gi Farmoni aynan soha rivojiga quylgan muhim poydevor bo'la oldi desak mubolag'a qilmaymiz [8].

Yuqorida keltirilgan xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida asosan tadbirkorlik muhitini yaxshilash va kambag'allikni qisqartirish borasida amalga oshirilayotgan tadqiqotlar hamda aholi daromadlarini oshirishga qaratilgan masalalar o'rganilgan.

Biroq tadbirkorlik muhitini yaxshilash, kambag'allikni qisqartirish va aholi daromadlarini oshirishning iqtisodiy-ijtimoiy imkoniyatlarini yanada kengaytirish hamda innovatsion va raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirishga qaratilgan aniq yechimlari yetarlicha o'rganilmagan. Shuning uchun ham, tadbirkorlik muhitini yaxshilash, kambag'allikni qisqartirish va aholi daromadlarini oshirishning iqtisodiy-ijtimoiy imkoniyatlarini yanada kengaytirishning zamonaviy yo'llari bo'yicha takliflar va tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy izlanishlarni olib borishni taqozo etmoqda.

Ushbu jihatlari ilmiy maqola mavzusining dolzarbligini belgilab beradi hamda tadqiqot mavzusini tanlash uchun asos bo'лади.



## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada mantiqiylar fikrlash, statistik tahlil, kuzatuv va qiyosiy tahlil, abstrakt fikrlash hamda ilmiy umum-lashtirish kabi usullardan keng foydalanilgan. Mavjud metodologik yondoshuvlarga tayangan holda, maqolada kambag'allikni qisqartirish va aholi daromadlarini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni o'rganish asosida olib borilgan ilmiy natijalardan keng foydalanilgan.

## ASOSIY TAHLIL VA NATIJALAR

Ma'lumki, Muhtaram Prezidentimiz tomonidan tadbirkorlik muhitini yaxshilash, kambag'allikni qisqartirish va aholi daromadlarini oshirishning iqtisodiy-ijtimoiy imkoniyatlarini rivojlantirish borasida bir qator Farmonlar qabul qilinib, keng ko'lamlisi islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvar kuni Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida kambag'allikni qisqartirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilandi [2]. Murojaatnomada ta'kidlaganidek: "Hududlarda, ayniqsa, qishloqlarda aholining aksariyat qismi yetarli daromad manbayiga ega emasligi sir emas. Har qanday mamlakatda bo'lgani kabi bizda ham kam ta'minlangan aholi qatlamlari mavjud. Turli hisob-kitoblarga ko'ra, ular taxminan 12-15 foizni tashkil etadi. Bu o'rinda gap kichkina raqamlar emas, balki aholimizning 4-5 millionlik vakillari haqida bormoqda. Bu ularning bir kunlik daromadi 10-13 ming so'mdan oshmayapti, degani. Yoki bir oilada mashina ham, chorva ham bo'lishi mumkin, lekin bir kishi og'ir kasal bo'lsa, oila daromadining kamida 70 foizi uni davolatishga ketadi. Xo'sh bunday oilanai o'ziga to'q deyish mumkinmi? Prezident sifatida meni odamlarimizning ovqatlanishi, davolanishi, bolalarini o'qitishi, kiyintirishi kabi hayotiy ehtiyojlari nima bo'layapti, degan savol har kuni qiynaydi. Kambag'allikni kamaytirish – bu aholida tadbirkorlik ruhini uyg'otish, insonning ichki kuch-quvvati va salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish, yangi ish o'rinnari yaratish bo'yicha kompleks iqtisodiy, ijtimoiy siyosatni amalga oshirish, demakdir.

Bundan ko'rindaniki, mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirish va aholi daromadlarini oshirishning yangi imkoniyatlarini yaratish zamon talabiga aylanib bormoqda. Kambag'allik ko'rsatkichini aniqlash, uni tahlil qilishdan asosiy maqsad davlat va fuqarolik jamiyatining kambag'al insonlar qatoriga tushib qolgan aholi qatlami uchun manzilli dasturlarni ishlab chiqish hamda aholi turmush darajasini oshirish hisoblanadi. BMT kambag'allik chegarasini asosiy tovar va xizmatlar uchun zarur bo'lgan daromadlar sifatida belgilaydi. Kambag'allik darajasi nisbiy tushuncha bo'lib, muayyan mamlakatning umumiy farovonlik darajasiga bog'liq. Jahon amaliyotida kambag'allikni hisoblashning uchta, ya'nini mutloq, nisbiy va subyektiv konsepsiysi keng tarqalgan. Ushbu konsepsiylar bir-birini inkor etmagan holda, aksincha biri ikkinchisini to'ldiradi. Kambag'allikni hisoblash ikki bosqichda amalga oshiriladi, birinchisi, kambag'allikni aniqlash bo'lib, bunda ushbu toifaga mansub bo'lganlarni xalqaro va mahalliy shart-sharoitlarni hisobga olib ishlab chiqilgan metodologiyadan foydalaniib hisoblanadi. Buning uchun eng asosiy shart sifatida statistik kuzatuvlarni to'g'ri amalga oshirish talab etiladi. Ikkinchisi, uning hajmini, ya'nini qiyomatini keltirib chiqarish va ularga davlat tomonidan manzilli yordam ko'rsatish lozim bo'ladi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda tadbirkorlik muhitini yaxshilash, kambag'allikni qisqartirish va aholi daromadlarini oshirishning iqtisodiy-ijtimoiy imkoniyatlarini rivojlantirish borasida bugungi kunda bir qator kamchiliklari mavjud, jumladan:


- aholi daromadlarini oshirishning iqtisodiy-ijtimoiy imkoniyatlarini rivojlantirish borasida aniq tizim shakllanmagan. Masalan, Germaniya davlatida aholi daromadlarini oshirishning iqtisodiy-ijtimoiy imkoniyatlarini rivojlantirish borasida zamonaviy innovatsion dasturlar ishlab chiqilgan;
- aholini ijtimoiy himoya qilish va kambag'allikni qisqartirish borasida ham zamoniy loyihalarni ishlab chiqilganligi yuksak natijalardan dalolat beradi;
- bizda esa, tadbirkorlik muhitini yaxshilash, kambag'allikni qisqartirish va aholi daromadlarini oshirishning iqtisodiy-ijtimoiy imkoniyatlarini rivojlantirish borsaida innovatsion va raqamli texnologiyalarni qo'llash masalalarida ham sezilarli darajada o'sish ko'rsatkichlariga ega emas;
- tadbirkorlik muhitini yaxshilash, kambag'allikni qisqartirish va aholi daromadlarini oshirishning iqtisodiy-ijtimoiy imkoniyatlarini rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni mukammal emasligi va uni takomilashtirish zarurligi hal qilinishi lozim bo'lgan eng muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Yuqoridaagi ko'rsatib o'tilgan kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etilishi tadbirkorlik muhitini yaxshilash, kambag'allikni qisqartirish va aholi daromadlarini oshirishning iqtisodiy-ijtimoiy imkoniyatlarini rivojlantirish borasida yangi innovatsion imkoniyatlarni kengayishiga xizmat qiladi. Bizning fikrimizcha, mamlakatimizdagи kambag'allik darajasini qisqartirish borasida mualliy tomonidan ishlab chiqilgan quyidagi zamonaviy yo'llarini amaliyotga keng tatbiq etish innovatsion yechimlar hisoblanadi.

1-rasm: Kambag'allikni qisqartirish omillari<sup>1</sup>

Bundan ko'rindiki, 1-rasmda mamlakatimizdagи kambag'allik darajasini qisqartirishga qaratilgan 8 ta замонавий ўрнлари ко'rsatib o'tilgan bo'lib, bugungi kunda amaliyotda ularni keng joriy etish kambag'allik darajasini qisqartirishga va aholi daromadlarini yuqori sur'atlarda o'sishini taeminlashga xizmat qiladi.

Qolaversa, mamlakatimizdagи aholi daromadlarini oshirishning yangi imkoniyatlari sifatida muallif tomonidan ishlab chiqlgan quyidagi 2-rasmda keltirib o'tilgan yangi imkoniyatlarni innovatsion yondoshuvlari hisoblanadi.

2-rasm: Aholi daromadlarini oshirishning yangi imkoniyatlari<sup>2</sup>

Bundan ko'rindiki, mamlakatimizdagи aholi daromadlarini oshirishning yangi imkoniyatlari sifatida 2-rasmda keltirib o'tilgan imkoniyatlarni aholi daromadlarini oshirishning innovatsion yondoshuvlari bo'lib, ushbu yondoshuvlarni o'z ichiga 6 ta yo'nalishlarni qamrab olgan. Ushbu yo'nalishlarni amaliyotga keng tatbiq etish mamlakatimizdagи aholi daromadlarini oshirishga xizmat qiladi. Chunki, amaliyotda 2-rasmda ko'rsatib o'tilgan yo'nalishlar umuman uchramaydi. Shuning uchun ham, ular yangi innovatsion yechimlar bo'la oladi.

1 Muallif tomonidan olib borilgan tadqiqotlar asosida ishlab chiqligan.

2 Muallif tomonidan olib borilgan tadqiqotlar asosida ishlab chiqligan.



Xulosa o'rnda shuni aytish joizki, tadbirkorlik muhitini yaxshilash orqali kambag'allikni qisqartirish va aholi daromadlarini oshirishning iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyati hal qilinishi lozim bo'lgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizdagi tadbirkorlik muhitini yaxshilash, kambag'allikni qisqartirish va aholi daromadlarini oshirishning iqtisodiy-ijtimoiy imkoniyatlarini rivojlantirish uchun muallif tomonidan ishlab chiqilgan amaliy taklif va tavsiyalarni amaliyatga keng tatbiq etish eng muhim innovatsion yechimlar hisoblanadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakatimizdagi tadbirkorlik muhitini yaxshilash, kambag'allikni qisqartirish va aholi daromadlarini oshirishning iqtisodiy-ijtimoiy imkoniyatlarini rivojlantirishda quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanishi kerak deb hisoblaymiz, jumladan:

- kambag'al aholi qatlamini monitoringini yuritish va kambag'al oilalar daromadlarini baholash reytingini ishlab chiqish;
- kambag'al aholi daromadlarini oshirishga qaratilgan imtiyozlarni joriy etish va har bir oila kesimida tadbirkorlikni tashkil etish;
- tejamkorlik dasturini yaratish va amal qilgan oilalarga imtiyozlar berish hamda onlayn xizmatlar bozorini rivojlantirish;
- aholi o'tasida daromadlarni oshirishga qaratilgan tanlovlarni tashkil etish bo'yicha asoslangan takliflarni amaliyatga joriy etishdan iboratdir.

Yuqorida keltirilgan tavsiyalarni amaliyatga keng joriy etilishi natijasida, tadbirkorlik muhitini yaxshilash, kambag'allikni qisqartirish va aholi daromadlarini oshirishning iqtisodiy-ijtimoiy imkoniyatlarini rivojlantirishning zamonaviy yo'llari hamda yangi innovatsion-iqtisodiy imkoniyatlari yuzaga keladi.

### Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlarini kuchaytirish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlarni tashkil qilish tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar, shuningdek, tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslar va ishlab chiqarish infratuzilmasidan foydalanan imkoniyatlarini kengaytirish to'g'risida"gi PF-5780-son Farmoni. 2019-yil, 13-avgust. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. "Xalq so'zi" gazetasi, 2020-yil 25-yanvar, № 19.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasini keng jamoatchilik o'tasida targ'ib etishga bag'ishlangan ilmiy-ommabop qo'llanma. – Toshkent-2018 yil.
4. В.А. Баринов, В.Л. Харченко "Стратегический менеджмент", Учебник. – М.: ИНФРА - М, 2006– 90 стр.
5. И.В.Сергеев "Экономика организаций", Учебник. – М.: Проспект, 2006. – 481 стр.
6. Б.А.Ходжаев "Методологические аспекты обоснования экспортного потенциала как фактора эффективности внешнеэкономической деятельности" // Халқаро муносабатлар. – Т., 2002. – №3. – стр. 33-39.
7. А.А.Исаджанов "Развитие внешнеэкономической деятельности Республики Узбекистан в условиях перехода на рыночные отношения": Дис. д-ра экон. наук / АН РУ институт экономики. – Ташкент, 2001. – 323 с.
8. A.O'Imasov "Oila iqtisodi", –T.: "Mehnat", 1998. B -48.
9. A.Vahobov "Bozor munosabatlariiga o'tish bosqichidagi ko'p ukladli iqtisodiyot va uning takroran hosil bo'lishi", –T.: Sharq, 2003. - 285 b.
10. R.Xasanov "Bozor daromadlari: mohiyati, tarkibiy tuzilishi va tabaqlanishi", -T.: Akademiya, 2004. -187 b.

# Yashi

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2023. № 11-12**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

**Jurnalning ilmiyligi:**

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.

